



TA'LIM TIZIMINI ZAMONAVIY AXBOROT – KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI BOSHQARUVNI RAQAMLASHTIRISH

Abdullayev Farxod Donakulovich

O'zbekiston Milliy Universiteti

E-mail: lobar.ashurova5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6943164>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 30th July 2022

KEY WORDS

axborot-kommunikatsiya,
raqamli texnologiya,
loyiha, raqamlashtirish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda tashkilot, korxona va muassasalar uchun boshqaruv tizimida qulaylik yaratuvchi yagona interaktiv portal joriy qilish jarayonlarini ko'rib chiqish va foydalanish.

So'nggi o'n yillikda ta'lim sohasida kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilishi pedagogika faniga qiziqishni kuchaytirdi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi muammosini hal qilishda rus va chet el olimlari katta hissa qo'shdilar. Jumladan G.R. Gromov, V.I. Gritsenko, V.F. Sholoxovich, O. I. Agapova, O.A. Krivosheev, S. Papert, G. Kleyman, B. Sendov, B. Hunter va boshqalar. Ta'lim jarayonida axborotlashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirishgan. Hozirgi kunda esa raqamli texnologiyaga katta ahamiyat qaratilmoqda va barcha sohalar sekin astalik bilan raqamlashtirilmoqda. Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha qator izlanishlar, g'oyalar va takliflar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan Леонов С. А. (2018). Интеграция здравоохранения, образования и информационно коммуникационных технологий в рамках цифровизации отечественной медицины. Актуальные проблемы экономики и управления, (3), 35-39.[5] Maqolada zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan

foydalangan holda tibbiyot sohasini raqamlashtirishga qaratilgan. Сафуанов Р. М., Лехмус М. Ю., & Колганов Е. А. (2019). Цифровизация системы образования. Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: экономика, (2 (28)). [6] Котенёва Д. С., Бут Е. А., & Гурова Е. А. (2020). Цифровые технологии в системе образования. Молодежный научный форум, 78.[1] Ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha bir qator g'oya va takliflarni kiritib o'tganlar.

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot izlanuvchilar, professorlar hamda xorij tajribalarini o'rgangan holda va ularning davomchisi sifatida OTM ning boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali "D&G"(digital technologies and gifted students) dasturiy tizimini yaratishga qaratilgan g'oyani ilgari surmoqdamiz. Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlardagi raqamli texnologiyalar asosida dasturiy tizim yaratishning



kontseptsiyalarini o'rganish va tahlil qilish, milliy kontseptsiya asosida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ko'p tarmoqli indikatorlarni e'tiborga olgan holda intellektual reyting yordamida qaror qabul qilish va uni amaliyotga joriy etish, universitet reytingini ko'tarish va qulay tezkor ishlashi uchun "DGS" kontseptsiyani ishlab chiqishdir. Bu dasturiy tizim iqtidorli talaba yoshlarni, bilimga qiziquvchi, izlanuvchi talabalarni o'zida jamlaydi. Bundan tashqari bo'lim va markazlarda xodimlarning ish faoliyatini ham yengillashtiradi [3].

Ishlab chiqilgan dasturiy vositalar evaziga boshqarishdagi axborot jarayonlari texnologiyasini butunlay o'zgartirishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, korxona muassasa va tashkilotlar faoliyatidagi holatni aks ettiruvchi ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini ta'minlash, ma'lumotlarni qayd qilishni sodda holatga keltirish, zarur xabarlarini izlash va guruhlash, ularning tezligini oshirish, axborot saqlashni mukammallash, hisobotlar tayyorlashda kishi mehnatini kamaytirish, xo'jalik bo'g'inlari orasidagi o'zaro bog'lanish va axborot oqimi sifatini ko'tarish, ikkinchi darajali ma'lumotlardan xoli bo'lib, bo'g'inlararo axborot oqimini tartibga solish, boshqarish uchun olingan ma'lumotlarni saralab, murakkab tahlil ishlarini bajarish, bashoratlash, maqbullash, rejalashtirish va tashkillash masalalarini hal qilishdan iboratdir. Bunday tizimlarni barpo etishdan asosiy maqsad korxona muassasa va tashkilotlarning markazlari va xodimlar uchun qulaylik yaratish, axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga qodir yagona interaktiv tizimni ishlab chiqishdir. Axborot jarayonlarini avtomatlashtirish

asosida rejalashtirish, loyihalash va boshqarish masalalarini yechish usullaridan foydalanishga imkon tug'iladi. Axborot jarayonlarini qo'lda bajarishga asoslangan an'anaviy boshqarish tizimlaridan boshqaruv ishlarini raqamlashtirishning farqi shuki, bu tizimni yaratish va foydalanishni tashkil etishning asosiy yo'l yo'riqlari maxsus qoidalar ko'rinishida ifodalangan bo'ladi [2]. Boshqaruvning ayrim bosqichlaridagi jarayonlarni mexanizatsiyalash masalani yechishga doir ma'lumotlarni tayyorlashga ketadigan mehnatni kamaytirmaydi. Bu holatda axborotni kiritish va chiqarish, namunalar hamda dastur apparatini tayyorlashda parallellikning buzilishi dastur va axborotni qayta ishlovchi texnik vositalarni ishlatishda qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchiliklar tezkor va haqiqiy ma'lumotlar asosida kelajakni uzoq muddatga bashoratlash masalasini hal qilishda, rejali topshiriqlarni tezkorlik bilan bajarishda, boshqarishda foydalaniladigan ma'lumotlarni taqdim etishdagi kechikishlarga sabab bo'ladi. Shu maqsadda ta'lim tizimida huddi shunday har bir bo'lim, tashkilot va muassasa o'z yo'nalishi doirasida dasturiy tizim barpo qilinsa, yuqorida sanab o'tganimizdek yuqori natijalarga erisha olamiz hamda ta'limda ham boshqaruv tizimida ham o'sish va yuksalish kengayib boradi.

Boshqaruv jarayonini raqamlashtirish shu jihatdan ham samaraliki, unda birinchidan hisobga olish va boshqarish masalalari yagona majmua ichida hal bo'ladi, ikkinchidan, axborotning harakat yo'li, ya'ni birlamchi axborotdan tortib to bir tizimga solingan boshqaruv ma'lumotlarigacha butunlay qamraladi. Boshqaruv jarayonini raqamlashtirish tizimining yagona matematik modeli, ya'ni



har xil darajadagi o'zaro bog'langan matematik modellar majmui bo'ladi. Bu modellar majmui asosida tizimda avtomatik ravishda maqbullash (optimallashtirish) va rejalashtirish masalasi qo'yiladi va yechiladi. Bu tizimning unumdorligiga hamma amallarning avtomatik ravishda bajarilishi evaziga erishiladi. Boshqaruv ishlarini avtomatlashtirish boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy tizimi turiga kiradi. Boshqaruv ishlarini avtomatlashtirish murakkab tizim bo'lib, o'z tarkibida tub tizimlarni mujassamlashtiradi. Bu tizim ma'lum belgilarga asoslanib ajratilgan va boshqarishning aniq maqsadi hamda masalalariga javob beradigan tizimning bir qismidir. Shu masalalar doirasida uni alohida tizim deb qarash mumkin. 2020-2021 yillarda "Raqamli Toshkent" dasturi asosiy yo'nalishlarni qamrab oldi jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal sektor, davlat boshqaruvi, turizm, savdo, qurilish va atrof-muhit muhofazasi [4]. Hozirgi vaziyatda O'zbekistonda masofaviy ta'lim, elektron banking hamda kommunal xizmatlarda ham elektron hisob orqali faol foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, fuqarolar, vazirliklar va idoralar uchun

elektron davlat xizmatlari ro'yhati shakillantirilgan.

Statistik natijalarga ko'ra yaratilayotgan dasturiy tizimlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmini keltirilgan jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, korxona muassasa va tashkilotlarning boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llagan holda barcha soha va markazlarni raqamlashtirsak, shu yuqoridagi muassasalarning raqamlashtirish faoliyati jarayonida mehnat unumdorligi va samaradorligi oshadi, hamda imkoniyatlari kengayadi.

Raqamli iqtisodiyot butun dunyoni qamrab olishi tufayli, axborotlashtirish va raqamlashtirishga oid har qanday davlat loyihasi kompleks ravishda hamda yagona kodlash tizimi, iqtisodiy va boshqaruvga aloqador axborotni aniqlash asosida o'rganilishi lozim. Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi, bizning nazarimizda, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'lim tizimini boshqaruvining yuksalishiga imkon yaratib beradi.

References:

1. Котенёва, Д. С., Бут, Е. А., & Гурова, Е. А. (2020). Цифровые технологии в системе образования. Молодежный научный форум, 78
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.07.2019 yildagi 589- sonli
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 17-martdagi PQ-4642- sonli
5. Леонов, С. А. (2018). Интеграция здравоохранения, образования и информационно-коммуникационных технологий в рамках цифровизации отечественной медицины. Актуальные проблемы экономики и управления, (3), 35-39.
6. Сафуанов, Р. М., Лехмус, М. Ю., & Колганов, Е. А. (2019). Цифровизация системы образования. Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: экономика, (2(28)).